

O'ZBEK XALQ TOPONIMIK RIVOYATLAR TASNIFI

Sanaqulova Umida Omonboyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

1- Bosqich magistranti

КЛАССИФИКАЦИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ТОПОНИМИЧЕСКИХ СКАЗАНИЙ

Санакулова Умида Омонбоевна

Ташкентский университет прикладных наук

Магистрант 1 ступени

CLASSIFICATION OF UZBEK FOLK TOPONYMIC NARRATIVES

Sanakulova Umida Omonboyevna

Tashkent University of Applied Sciences

Master of Stage 1



[sanaqulovaumida290@
gmail.com](mailto:sanaqulovaumida290@gmail.com)

[https://orcid.org/0009-
0006-2422-799X](https://orcid.org/0009-0006-2422-799X)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy va muhim janrlaridan biri bo'lgan toponimik rivoyatlarning tasnifi, ularning mavzu xususiyatlari hamda xalq tafakkuridagi o'rni o'rganiladi. Muallif tomonidan rivoyatlar syujeti, mazmuni, funksional vazifasi hamda estetik qiyofasiga asoslangan holda bir nechta turlarga ajratish taklif etiladi. Tadqiqotda tarixiy, diniy, mifologik va ijtimoiy-ma'naviy xarakterdagi toponimik rivoyatlar asosiy tasnif mezonlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: toponimik rivoyat, janr, xalq og'zaki ijodi, tasnif, xalq tafakkuri.

Аннотация: В данной статье рассматривается классификация топонимических преданий узбекского народного фольклора, их тематические особенности и место в народном сознании. Автор предлагает типологию на основе сюжета, содержания, функций и художественных особенностей преданий. В исследовании рассматриваются исторические, религиозные, мифологические и социокультурные топонимические предания как основные критерии классификации.

Ключевые слова: топонимическое предание, жанр, устное народное творчество, классификация, народное сознание.

Annotation: This article examines the classification of toponymic legends in Uzbek folk oral tradition, their thematic features, and their role in the national worldview. The author proposes a typology based on the plot structure, content, function, and artistic features of the legends. The study focuses on historical, religious, mythological, and socio-cultural toponymic legends as the main criteria for classification.

Keywords: toponymic legend, genre, folk oral tradition, classification, national worldview.

KIRISH

O'zbek folklorshunosligida rivoyat janri tabiati, uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va mavzu jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha chuqur tadqiq etilmoqda. Bu borada mashhur folklorshunos olim Komiljon Imomovning izlanishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olim o'z tadqiqotlarida o'zbek xalq rivoyatlarining janr belgilarini aniqlash, ularning asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tasniflash va tavsiflashga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, u rivoyatlarning og'zaki an'anaga xos shakl va mazmun xususiyatlari, ularning xalq ongidagi funksiyasi, diniy, tarixiy va ijtimoiy ildizlarini ochib berishga intilgan.

Toponimik rivoyatlar o'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy qatlamini tashkil etib, muayyan joy nomining kelib chiqishini, u bilan bog'liq bo'lgan tarixiy, diniy, mifologik yoki ma'naviy hodisalarning xalq tasavvuridagi ifodasini o'zida aks ettiradi. Bu rivoyatlar nafaqat geografik manzillarning etimologiyasini ochib beradi, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va madaniy merosini anglashda ham muhim manba vazifasini o'taydi. Tadqiqotimizda toponimik rivoyatlarni tasniflash, ularni mazmun-mohiyatiga qarab turkumlarga ajratish masalasi asosiy yo'nalish sifatida tanlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tasniflash va tahlil qilishda komparativ-tahliliy, tizimli yondashuv, tipologik usullar qo'llanildi. Asosiy empirik material sifatida Komiljon Imomov, S.Ahmad, A.Hayitmetov, R.Jo'rayev va boshqa folklorshunos olimlarning izlanishlariga, shuningdek, yozma to'plamlar va ekspeditsion materiallarga tayanildi. Rivoyatlar syujetiga, semantik yuki, ishtirok etuvchi obrazlar va funksional vazifasiga ko'ra turlarga ajratildi.

Mazkur tasnif, garchi o'zbek xalq rivoyatlarining ko'plab turlarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, mavjud rivoyatlarning barcha syujet va motivlarini to'liq qamrab olmagan. Ayniqsa, ayrim maxsus motivlar — masalan, muayyan samoviy jismlarning (oy, yulduz, quyosh va h.k.) paydo bo'lishi bilan bog'liq tushunchalar,

qahramonning safar yo'liga chiqishi yoki uning boshidan kechirgan sarguzashtlari orqali joy nomining vujudga kelishi kabi toponimik motivlar bu tasnifda yetarli darajada ifodasini topmagan. Bu holat toponimik rivoyatlar sistemasi va ularning ichki semantik qatlamini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Bizningcha, o'zbek xalq toponimik rivoyatlarida uchraydigan an'anaviy motivlar faqatgina syujet asosidagi tasnif bilan cheklanmasligi, balki ularning tarixiy-madaniy manbai va ideologik ildizlari ham hisobga olinishi zarur.

Rivoyatlar – xalq og'zaki ijodining qadimiy va muhim janrlaridan biri bo'lib, ular orqali milliy tarix, diniy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, shuningdek, muayyan geografik hududlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Xususan, rivoyatlar o'lkamiz tarixini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Ular orqali qadimgi joy nomlari, shaharlar va tarixiy obidalar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, shaxslar va ularning harakatlari haqida ma'lumotlar olinadi. Shu sababli, bugungi kunda rivoyatlarni xorijiy tillarga tarjima qilishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat madaniy almashinuvni kuchaytiradi, balki xalqimizning boy tarixiy-ma'naviy merosini jahon ilm-fan maydoniga olib chiqish imkonini ham yaratadi.

Mazkur fikrni hozirgacha amalga oshirilgan tarjimalar misolida ham tasdiqlash mumkin. O'zbek xalq rivoyatlari, ayniqsa toponimik rivoyatlar, g'oyaviy-mavzuviy jihatdan alohida e'tibor talab qiladigan guruhlardan biridir. Bu turdagi rivoyatlar, asosan, geografik obyektlarning – shahar, qishloq, tog', minora, daryo va boshqa joy nomlarining kelib chiqishini tushuntiruvchi afsonaviy va tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunga kelib, o'zbek toponimik rivoyatlaridan bir qatorlari ingliz tiliga tarjima qilinib, xalqaro ilmiy va adabiy auditoriyaga taqdim etilgan. Bunday tarjimalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

-"Kirk kiz" ("Qirq qiz") –
Qoraqalpog'istondagi qadimiy qal'a va qahramon

qizlarning dushman bosqiniga qarshi ko'rsatgan jasorati haqida rivoyat.

- "Minaret Kalon" ("Minorai Kalon") – Buxoroning ramziga aylangan minora atrofida yuzaga kelgan tarixiy voqea va afsona.

- "How Samarkand Got Its Name?" ("Samarqand o'z nomini qanday olgan?") – qadimiy shaharning nomi va vujudga kelishi bilan bog'liq folkloriy tafsif.

- "BibiKhonim" ("Bibixonim") – Amir Temur davrining me'moriy yodgorligi va unga bog'liq afsonaviy voqealar.

- "How Karshi Got Its Name?" ("Qarshi o'z nomini qanday olgan?") – shaharning tarixi va nomining kelib chiqishi haqidagi rivoyat.

- "The Village of Eshimjon" ("Eshimjon qishlog'i haqida") – xalq og'zaki yodida saqlanib qolgan qishloq tarixi.

- "Andijon" – Farg'ona vodiysining qadimiy shahri va uning nomi bilan bog'liq og'zaki an'ana.

- "The Legend of Kalta Minaret" ("Kalta Minor haqida afsona") – Xivada qurilishi tugallanmay qolgan minora haqidagi rivoyat.

- "How Khiva Got Its Name?" ("Xiva o'z nomini qanday olgan?") – xalq orasida mashhur bo'lgan, shaharning nomi bilan bog'liq tarixiy-folkloriy hikoya.

Mazkur rivoyatlarda muayyan geografik atama yoki toponimning paydo bo'lishi aniq faktlar va etnofolkloriy detallar bilan asoslangan. Ular ko'pincha real tarixiy hodisalar bilan uyg'unlashgan holda, xalq tasavvurida shakllangan afsonaviy bayonlar vositasida izohlanadi. Masalan, biror shaharning nomi qahramonning harakati, diniy hodisa, mo'jiza yoki dramatik voqea bilan bog'lanadi. Bu esa rivoyatlarning nafaqat estetik, balki tarixiy, lingvistik va madaniy qiymatini ham oshiradi.

Toponimik rivoyatlar o'zbek xalqining muhitga munosabati, makon va joy tushunchasini shakllantirishdagi o'rni, tarixiy xotirasini saqlash

usuli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu rivoyatlar orqali biz xalqning qadimiy tarixiy xotirasi, joyga bog'liq e'tiqodlari, sadoqati, qahramonlik va sabr-toqat bilan bog'liq qadriyatlarini kuzatishimiz mumkin.

Chet tillarga tarjima qilingan bunday rivoyatlar nafaqat o'zbek adabiyoti va folklorining xalqaro maydondagi tan olinishi uchun muhim, balki boshqa xalqlar bilan madaniy dialog o'rnatish, turli xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi umumiylik va farqlarni taqqoslash imkonini ham beradi. Shu boisdan, bu yo'nalishda olib borilayotgan tarjima faoliyatini ilmiy-metodik asosda rivojlantirish, ularni kontekstual tahlillar bilan boyitish, izohli lug'atlar va akademik nashrlar asosida chop etish bugungi kun folklorshunosligi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

XULOSA

Toponimik rivoyatlar xalq tafakkurining tarixiy, diniy va madaniy qatlamlarini aks ettiruvchi noyob og'zaki yodgorliklardir. Ularni tasniflash esa ularning ma'no va mazmunini chuqurroq tushunishga, ularning xalq ongidagi funksiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan tasnif o'zbek folkloridagi toponimik rivoyatlarning rang-barangligini ko'rsatib beradi hamda kelgusidagi izlanishlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
2. Ahmad S. O'zbek xalq rivoyatlari. – Toshkent: Fan, 1978.
3. Hayitmetov A. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston, 1984.
4. Jo'rayev R. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Qarshi: Nasaf, 2005.
5. O'zbek xalq rivoyatlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2.